

OLIIY TA'LIM MUASSALARIDA MUTAXASSISLARNI TAYYORLASHDA O'QITISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISHDA YANGI PEDAGOGIK TEXNOLIGIYALAR TAKLIFLARI

Boymurotov Azimboy Baronovich

*zahiradagi podpolkovnik, O'R HX va MUining Serjantlar tayyorlash oliy
maktabi Texnik tayyorgarlik sikli katta o'qituvchisi Qurolli Kuchlar
xizmatchisi*

Annotatsiya: O'qitishda o'ta muhim bo'lgan omil auditoriya faolligini oshirish va bu orqali o'qitishda olinadigan natijaning samaradorligini ko'tarish har qanday sharoitda ham hozirgi zamon talabi va bu chuqur o'rganilishi lozim bo'lgan yo'nalishligi haqida ko'p gapirganmiz va eshitganmiz ham. Bu tayanch tushuncha o'quv jarayonining barcha yo'nalishlariga kirib borgan-ki, hozir o'quvchining mustaqil fikr yuritishi va uni etkazib berishga o'rgatish asosiy dolzarb masala bo'lib qoldi. Maqsad o'quvchini doim qiziqtirib mashg'ul qilish va bilimlarini oshirishda kerakli natijaga erishish.

Kalit so'zlar: Motivatsiya, innovatsion texnologiyalar, notiqlik san'ati, nutqning dialog turi.

Motivatsiya o'zi nima.... – (lot. movēre) HARAKATLANTIRMOQ ma'nosini anglatadi, harakatga uyg'otish:

Motivatsiya (ot lat. movēre «dvigat») – harakatga uyg'otish; insonning yo'nalishini, faolligini va barqarorligini, o'zining ehtiyojlarini qondirish uchun qobiliyatini beradigan psixofiziologik jarayon. Qiyin bir jumla paydo bo'ldi. Lekin oddiy qilib aytganda uning ehtiyojini qondirish uchun uni harakatga uyg'otish desak ham bo'ladi.

Bu tushunchaga turli qarashlar mavjud va ular ommaviy axborot vositalarida, internet tarmoqlarida juda ko'p uchraydi. Dunyo hamjamiyati bu jumlagi shunchalik yopishib olganlar-ki, demak u bilan juda ko'p maqsadlar bog'liq.

Innovatsion jumladan biri bo'lgan bu so'zning o'zagi MOTIV, ya'ni harakatlantiraman degan ma'noni anglatar ekan.

E'tiboringizni bir nechta rasmlarga qaratmoqchimiz.

Rasmlar aralash va ular hech bir tizimni o'zida kasb etmayapti.

O'quv jarayoni haqida gap ketganda, kimni tayyorlashdan qat'iy nazar, uni shu sohaga qiziqtirish, ya'ni o'rganishga motivatsiya berish va buning mahsulini ko'rsatib bera olish qobiliyatini o'qituvchi yoki o'rgatuvchi har tomonlama mukammallashtirib borishi kerak.

O'zining bilimi va ibрати bilan namuna bo'lishi kerak-ki, o'rganuvchi undan motivatsiya, ya'ni harakatga uyg'onish olsin.



Maqolamizning birinchi taklifi: har bir o'qituvchi o'quvchiga o'zi nimaga qiziqsa, qobiliyati bo'lsa shu qobiliyatini o'quv jarayonga bog'lasin, uni namoyon etib barchga o'rnak bo'lsin. Masalan kompyuter texnologiyalari, kitob o'qish, teatrga borish, muzeylarga borishi haqida gapirib berish, kerak bo'lsa aqliy hujum daqiqalarida izohsiz, so'zsiz namoyish etsin, fikr yuritishga undasin.

Har bir sohaning egasida, mutaxassisida pog'onama-pog'ona ko'tarilib borish, karerani o'stirish instinkti mavjud bo'ganidek buni jarayonga tadbqiq etsin, yaxshi tomonlarini albatta. Bu ham motivatsiya vazifasini bajarib berishi mumkin.

Qobiliyatni namoyon etish (agar u ijobiy bo'lsa) maqtanchoqlik emas.

Biz bu borada ham o'rganuvchiga yordam beraylik, qaysi ma'noda? Uning karera o'sishi xaritasini chizib beraylik, oxir-oqibat bu uning asosiy maqsadlaridan biriga aylansin.

kelib chiqib umumiy inson uchun cho'qqiga chiqish uchun, ya'ni komil inson bo'lish uchun kerak bo'ladigan barcha ijobiy xislatlar va qobiliyatlarni, shu bilan yonma-yon unga xizmat faoliyatida to'siq bo'ladigan ijobiyatlarga qarama-qarshi bo'lganga salbiylarini ham sanab o'taylik, gapirishdan to'xtamaylik, toki unda bular refleksga aylanib immunitet hosil bo'lmaguncha. Aytyapmiz, Yaponiya, Janubiy Koreya, Skandinaviya mamlakatlarini gapiryapmiz. Bizning ulardan qaerimiz kam. Hech qaerimiz. Salohiyatimiz pastmi? Tarixdan ma'lum, bunday emasligini isbotlab qo'yanmiz. Qani bizda ulardagidek bajaruvchanlik qobiliyat? Sanab o'tilgan mamlakatlarda hali ham oila boshi bosh, to'rda turib ularning aytgan gapi ikki qilinmaydi. Chunki ular o'sha mashaqqatli qiyinchiliklarni bosib o'tishgan va amaliy ko'nikmalari mavjud. Biz lekin buni bugun yoshlarga etkaza, o'tkaza olyapmiz-mi?

Bajaruvchanlik qobiliyati haqidagi o'ylarmiz, fikrlarimizdan keyin yana o'sha rasmlarga qaysak.

Yuqorida keltirib o'tilgan rasmlarni o'sish tartibida joylashtirsak muhim bir hayotiy ahamiyatga ega to'liq bir jarayon ma'nosini o'zida kasb etadi.

Bu rasmlarni o'sish ierarxiyasi deb atagan bo'lar edik va shunday joylashtirgan bo'lar edik:

maqsadini chizib berdik;

u uchun eshiklar ochildi;

maqsad sari astoydil harakat qildi;

cho'qqiga etdi va ko'zlagan maqsadiga erishdi, ya'ni nishonga urdi;

boshqalarni o'ziga ergashtirdi.

Bu harakatni foydali harakat deyishimiz mumkin va bu harakat bee'tibor qolmasligiga hammamiz ishonamiz va o'rganuvchilarni ham shunga ishontira olishimiz lozim.

Mutaxassislikni o'qitishning yangi innovatsion texnologiyalari va usullari.



Mamlakatimiz mustaqilligining ilk kunlaridan boshlab ta'lim-tarbiya masalalariga davlat siyosatining ustuvor vazifalaridan biri sifatida qaralib kelinmoqda. O'zbek xalqi ta'lim-tarbiyaga oid boy merosga ega bo'lib, avlodlarda vatanparvarlik, insonparvarlik, kamtarlik, mehnatsevarlik, do'stlik, mehr-oqibat, birodarlik, odoblilik kabi umuminsoniy fazilatlarni tarbiyalab kelgan. Sharq mutafakkirlarining ta'lim-tarbiyaga oid asarlari ham ana shu merosning tub negizini tashkil etadi. Oxirgi ikki yilda bu jarayon ayni avjiga chiqdi. Ta'lim tizimi haqida har kuni deyarli barcha ommaviy axborot vositalarida eshitamiz. Demak shu jarayonga endi etib keldik-mi, tushunib etdik-mi, ta'limni ko'tarmasdan biror bir natijaga erishish qiyinligi hammaga kundek ravshan bo'lib qoldi. Chunki bu yillarda ilm-ma'rifatda oldinga ketib qolganini Yaponiya, Janubiy Koreya, Skandinaviya mamlakatlarida kuzatishimiz mumkin-ki, bu tizim ularda ancha rivojlangan va juda yaxshi ishlaydi. Bu haqda yuqorida ham to'xtalgan edik.

Bunday natijaga erishishning asosiy omili insonda, inson tafakkurida. An'anaviy o'qitish tizimidan ancha chekingan holda o'rganuvchini erkinlashtirish, ya'ni o'zining fikrini bayon eta olish darajasiga olib kelish biz pedagoglarning asosiy vazifamizga aylanib qolishi lozim.

Innovatsion usullar turlicha bo'lishi mumkin. Biz bugun o'zimizda ko'proq qo'llaydigan texnologik usullar haqida ko'p to'xtalganmiz. Bumerang, esse, aqliy hujum, B-B-B, blis-so'rov. Bular juda samarali usullar va ularni ko'p hollarda qo'llaganmiz va natijasi yaxshi.

Notiqlik san'atini yaxshi egallagan mutaxassis so'z qudratidan foydalanib bo'ysunuvchi ishchi yoki xizmatchilarini o'ziga qarata oladigan, o'zi orqasidan ergashtira oladigan haqiqiy yo'lbo'shchiga aylana oladi. Bu esa oson ish emas. Rimning buyuk notig'i Sitseron shunday degan edi: "Suxandonlik shunday sifatki, unga osonlikcha erishib bo'lmaydi va u juda ko'p bilim va mehnatdan tug'iladi". Bu so'zlar hech qachon o'z dolzarbligini yo'qotmaydi. Notiqlik madaniyati qoidalarini va nazariyasini bilish, odamlar psixologiyasini o'rganish, nutq so'zlashni doimiy mashq qilish va so'z ustida jiddiy ishlash, odamlarga ta'sir o'tkazish, ularning diqqatini jalb etish mutaxassis oldida turgan vazifalarni sifatli bajarishga o'zini safarbar etish imkoniyatini beradi.

Materiallar va usullar. Nutq madaniyatining rivojlanishi bizning mutaxassislarimizga nima beradi? Shu savolga javob berish maqsadida bir qancha tarixiy fikrlarga nazar tashlasak:

Boy adabiy merosimizda til, nutq xaqida ko'plab fikrlar keltirilgan bo'lib, ulardan bir nechta misollar keltiramiz:

Tilni, so'zni qadrla, uni hurmat qil. ("Hamsa", 34-bet).

Kishining so'zi(nutqi) uning aqliy kamolotidan darak beradi.("Nazm ul-javohir", 25-bet).

So'zlaganda diling bilan tiling bir bo'lsin. Chunki dildagi gap tilga chiqadi. ("Arbain", 59-bet).



So‘zlaganda o‘ylab so‘zla, tushunib, bilib gapir; so‘zni ko‘ngilda pishqirmaguncha tilga keltirma. (“Maxbub ul-qulub”, 83-bet).

Yaxshi, ezgu so‘z(nutq) kishiga obro‘, baxt keltiradi. Ezgu so‘zli bo‘l. (“Nazm ul-javohir”, 30-bet).

Tildan tuhmat uchun foydalanma. Tuxmatchidan qoch, undan nafratlan. (“Maxbub ul-qulub”, 61-bet).

Yuqorida aytilgan fikrlardan shu kelib chiqadi-ki nutqning sohirligi, mohirona qo‘llanishi, o‘z vaqtida qo‘llanishi va mukammalligi insonning bilimdonligidan, donoligidan, maqsadlarida sabotliligidan, tarbiyasida tartibliligidan dalolat beradi va bunday shaxs har qanday jamoani o‘zi bilan ergashtira oladi, har qanday qahramonlikka tayyor bo‘ladi.

Nutq madaniyati, so‘z sehri kabi terminlar bilan qisqacha bo‘lsa ham tanishib oldik. Endi faollikni oshirishda nutq madaniyatining alohida o‘rni bor desak, og‘zaki nutqning dialog turlari haqida to‘xtalishga majburmiz, chunki bularsiz biz kirib borayotgan jarayon kamtik bo‘lib qoladi. O‘z navbatida u quyidagi turlarga bo‘linadi:

suhbat ikki va undan ortiq kishilar o‘rtasidagi avvaldan tayyorlangan mavzu va reja asosida yoki tasodifiy tarzda yuzaga kelgan fikr almashish jarayonidir;

disput(lotincha disputare fikrlamoq, bahslashmoq) - ilmiy, adabiy va boshqa mavzulardagi ommaviy bahs;

diskussiya(lotincha discussio - tadqiq qilish, ko‘rib chiqish) - biron-bir bahsli masalani yig‘ilishda, matbuotda, suhbat davomida muhokama qilish;

debatlar(fransuzcha debats) - biron-bir yig‘ilish, majlisda so‘zga chiqish, fikr almashish;

bahs - biron-bir mavzu yuzasidan o‘z nuqtai-nazarini, qarashlarini himoya qilish bo‘yicha suhbatdoshlar o‘rtasidagi munozara;

polemika(yunoncha polemica - harbiy san’at (polemos - urush)) - ilmiy, adabiy, siyosiy va boshqa mavzudagi masalalarni muhokama qilish jarayonidagi bahs.

Yuqoridagi fikrlardan shuni aytish mumkin-ki bizning holatimizda auditoriya faolligini oshirish va bu orqali samaradorlikni ko‘tarish ayni nutqning dialog turlari bilan uzviy bog‘likligini ko‘rishimiz mumkin. Ko‘rinib turibdi-ki, og‘zaki nutq dialog turining asosini bahs tashkil etadi. Bahs qaysi shaklda, qanday sharoitda va kimlar o‘rtasida olib borilmasin, uning maqsadi bahslashuvchi tomonlarning o‘z nuqtai-nazarini himoya qilish, o‘zgacha fikrni inkor qilishdan iborat bo‘ladi.

Bahs haqida chuqurroq gapiradigan bo‘lsak biz qo‘llashimiz mumkin bo‘lgan bahs turlari o‘rtaga keladi.

Haqiqatni izlash maqsadidagi bahs(apodiktik bahs). Bunda maqsadga mantiq qonun va qoidalariga qat’iy amal qilish orqali erishiladi. Bunday bahs ko‘pchilik hollarda diskussiya yoki polemika shaklida olib boriladi.



Qarshi tomonni biron-bir narsaga ishontirish maqsadidagi bahs(eristik bahs). Masalan, jamoada intizomni tubdan yaxshilash zarurligi haqida jamoa a'zolarini ishontirish.

Noto'g'ri asosga ega yolg'on xulosalar(sofizmlar) yordamida bahs yoki diskussiya paytida masalani ataylab murakkablashtirish va chigallashtirish(sofistik bahs). Bu esa o'rganuvchilarning mustaqil fikrlashiga undaydi.

Nutq qurilishining quyidagi yo'llari belgilangan:

deduktiv - umumiydan xususiya qarab fikr yuritish, umumiy fikrdan xususi yoki boshqa umumiy xulosalarga kelish;

induktiv - xususi, alohida holatlardan umumiy xulosaga kelishga qaratilgan fikr;

jamlangan - fikrning asosiy mazmuniga urg'u berish, boyitish, jamlash;

tizimli - nutq maqsadiga va mazmuniga ko'ra fikrning aniq tizim asosida rivojlantirilishi;

tarixiy - nutqning tarixiy faktlar, raqamlar asosida qurilishi.

Yuqoridagi aytilgan fikrlarga to'xtalishimizdan maqsad bularning barchasi yangi pedagogik texnologiyalar tuzilishining asosiy ustunlari bo'lib xizmat qiladi.

“Bumerang”, “Blits-so'rov”, “Esse”, “Aqliy hujum” “B-B-B” va boshqalari haqida hamma eshitgan. “Faollikni oshirish” deganda auditoriyaning berilayotgan ma'lumotga nisbatan qiziqishini va bu jarayonda kreativligini tushunishimiz mumkin. Bunga erishishning asosiy usullaridan biri albatta baholash tizimining murakkabligi yoki mukammalligi desak bo'ladi. Bu haqda biz oldingi maqollalarimizda ko'p fikrlarni keltirganmiz. Endi biz shuni maqsad qilganmiz-ki baholash jadvalini to'ldirishning boshqa usullarini ham qo'llab kelmoqdamiz.

Mintalitetimizdan kelib chiqib shuni angladik-ki, o'zbek xalqida o'zining “MENI” bor. Va biz shu xislatdan(keyinchalik fazilatga aylanadi) yaxshi tomonga foydalanishimiz mumkin, individuallikni yuzaga chiqaradigan bo'lsak va umuman olganda esa guruhchalarni faollashtirish imkoniga ega bo'lamiz. Umuman gapirmaydigan o'quvchini ham gapirtiramiz, ergashtiramiz,

Maqolamizning ikkinchi taklifi: Qisqa va tezkor savol-javob. Bu qanday jarayon?

Har bir mashg'ulotimiz boshida 5-10 daqiqa mobaynida kichkinagina so'rov o'tkazishimiz mumkin. Antiqua va qiziq, musobaqali, o'rganuvchilar bir-birini nazorat qilish jarayoni o'rtaga keldi. Kartochkalar

va h.k. Bu kartochkalar har bir mavzuga o'tganda ko'payib boradi. Bu qanday qo'llaniladi? Ag'darilib qoyilgan bu kartochkalarni bir-ketin tortib boraveriladi, navbati kelgan o'rganuvchi faqat javob beradi. Javob bera olmasa javob uchun bitta “+” olishdan mahrum bo'ladi. Savol esa keyingi o'rganuvchiga o'tib keteadi. Javob bergan esa bitta “+” oladi va “++++” soni ortib boraveradi. 5-10 daqiqada javob berish imkoniyati 2 yoki 3 marta kelishi



mumkin. Yana bitta shart shu-ki 1 dan 3 gacha sanagancha javob bo'lish kerak. Agar kech qolinsa navbatdagiga o'tib ketadi. Ushlanib qolishi mumkin emas, adolat mezoni hukm surishi kerak. Javob bo'lmasa ham "-" qo'ymaslik juda muhim. Bu musobaqa kayfiyatini va sura'tini tushirib yuboradi. Natijada bu usulimiz kerakli natijani bermasligi mumkin. Lekin bundan qo'rqmaslik lozim, aksincha keyingi mashg'ulotda javob bera olmagan o'rganuvchi yanada ziyrakroq bo'ladi. "Bir-birini nazorat qiladi" degan iborani qo'lladik. Chunki baho umumiy jadvalga-mi yoki mashg'ulotdan oldingi vaqt uchun-mi qo'yilganda eng ko'p "+" olganga nisbatan qo'yiladi. Demak, eng kam "+" olgan o'rganuvchi "2" baho olishi mumkin. O'zining "MENI" bor o'rganuvchi bunga yo'l qoymaslikka harakat qiladi. Bu usulning yana bir qulayligi shunda-ki, bir necha darsda ancha savollarni qayta ko'rib, eslab olish imkoniyati paydo bo'ladi. Eng asosiysi unutmaslik darajasiga etib boradi. O'rganuvchilar bilan ishlaganda jurnal bo'yicha raqamlar bilan ishlash adolatli bahsga sabab bo'ladi va past o'zlashtiruvchi o'rganuvchi ham o'zini bu holatda erkun tutadi, hatto ko'zlangan maqsadga ham hamma qatorida erishishi mumkin. Bular o'zi kichkina savolchalar, lekin tezkorligi tufayli ko'p savollarni qamrab oladi. Bu usulning yana bir ustunlik tomoni o'tgan mashg'ulotlar unut bo'lmaydi, balku ularga savollar qo'shib boradi. Agar oqituvchi o'z ishida ijodkor bo'lsa, o'zining tuzgan rejasiga asosan nega bunday usullardan foydalanmasin? Agar bunday usullar natija bersa, nega bu rejalarni o'zgartirmasin?

Bu usulning nomini "qisqa savol-javob" deb nomlasak bo'ladi. Bu savolchalar haqiqatdan kichkina va qisqa, lekin mavzularning kalit va tayanch savollarini o'z ichiga oladi. Mutaxassis faoliyatida doim uchraydigan va ularni hech qachon yodidan chiqarmasligi lozim bo'lgan savol-javoblar jarayoni desa bo'ladi.

Maqolamizning uchinchi taklifi: testlar o'tkazish. Hozir kirish, oraliq va chiqish testlarini olish yo'lga qo'yilgan. Biz taklif etyapmiz-ki testni har hafta yoki har oy olishni. Uning baholarini reyting ballga aylantirib hisobga olishni. Bir vaqtning o'zida ham bilimlarni mustahkamlab borish, shu bilan bir qatorda guruhda o'z o'rnini yaxshilab borishini ta'minlash oily maqsad qilib qo'yilyapti. Reyting ballar bilan har bir o'rganuvchini musobaqa tizimiga avtomatik ravishda kirgizib qo'yamiz. O'z holatini yaxshilash uchun harakat qiladi, testlarni olishning yana bir o'zgartirishimiz, testlarning javobini tekshirishni va xatolar ustida ishlashni o'zlariga qo'yib berishni taklif etamiz.

Birinci qadam: testni echadi, ya'ni barcha javoblarni belgilab chiqadi.

Ikkinchi qadam: o'qituvchi hamma javoblarni belgilaganligiga ishonch hosil qiladi.

Uchinchi qadam: o'qituvchining javoblarni ma'lum qilishi bilan to'g'ri javoblarni o'zining javobi yoniga yo'zib qo'yadi.

To'rtinchi qadam: o'rganuvchilar test javoblarida berilgan baholash



shartlariga ko'ra o'zlarini baholaydilar.

Beshinchi qadam: yo'l qo'ygan xatolari ustida 5-10 daqiqa ishlab olishga ruxsat berishda iborat bo'ladi.

Bu holatda ko'p muammolar esga olinadi: testni yodlab oladi, aldashga urinadi degan gaplar. Hech qanday bunday hollar bo'lmaydi. Yodlab olsa olaversin. Ayni muddao. Bir necha yilga muhrlanadi. Qiziqadi, keyingi safar to'g'ri javoblar sonini ko'paytirishga harakat qiladi. Shohidi bo'lganmiz. Yodidan ko'tarilgan taqdirda ham 70-80 % ni eslab qolsa, shuning o'zi ham katta natija.

“Bumerang” usulida bo‘ladigan jarayonni esga olsak:

E'tibor beradigan bo'lsak, biz hozir aslida “bumerang” usulimi yoki boshqa usulmi, farqi yo'q, qaysi samarali bo'lsa shuni qo'llash, faollikni oshirish va kerakli natijalarga erishish haqida gapiryapmiz. Biz taklif qilgan “qisqacha savpl-javob” usuli natijalarini hav baholash jadvaliga kiritishimiz mumkin.

Endi shu mashhur “bumerang” usulini eslasak, birinchi davrda har bir guruhchaga, ya'ni stolga turli xil mashg'ulot savoli o'rganishga beriladi. Shunda to'rtta har xil savol tarqatiladi. Bir vaqtning o'zida guruhlarda to'rtta savol o'rganilmoqda. O'rganuvchilar bu savollarni guruh bilan birga o'rganishi va material bo'yicha nechta dir(o'qituvchi tomonidan ko'rsatilgan miqdorda) savol tuzadilar. Shu erda ularga motivatsiya berish kerak-ki bu savolni bahs-munozara jarayonida guruhlar bir-birlariga berishadi. Agar savolga javob topilmasa, o'zlari aytishlari lozim bo'ladi.

Natijalar va muhokamalar(baholash jadvali).

Yaxshi natijalarga erishishning asosiy omillari:

Materialning o'rganuvchilar tomonidan puxta o'rganilishiga to'rtta sabab:

birinchi sabab - savol bergani uchun “+” olishlari mumkin, qo'shimcha qilganlari uchun “+” va guruh esa 1 bal olishi mumkin;

ikkinchi sabab - o'rganmasa va faol bo'lmasa guruhchani ballari tushib ketishi va natijada guruhcha kam ball yig'gani uchun qoniqarsiz baho olishi ham mumkin(o'qituvchining qarori bilan albatta yoki alohida “+” bo'yicha ham baho chiqarilishi mumkin);

uchinchi sabab - yaxshi o'rgansa guruhchani bali baland bo'ladi va bu ballar guruhchadagi o'rganuvchilar soniga bo'linadi va olingan son “+” lar ko'rinishida individual “+” lariga qo'shiladi va natijada maksimal darajada “+” ga erishishi va foiz hisobida hisoblaganda “a'lo” baho olish imkonini yaratadi;

to'rtinchi sabab – qayta-qayta takror o'qishda: savolni o'rganish jarayonida; savol tuzish jarayonida; boshqa stoldagi raqamdoshlariga o'rgatayotgan davrda(chunki ular ham talab qilishadi, agar yaxshi o'rgatmasa past baho olishadi), ya'ni bitta material kamida 3 marta takrorlanadi, 4-marta esa savol berayotganida baribir yana javobga ko'z yugurtirganida.

Bunga yana beshinchi sabab ham qo'shiladi: savolchilarga javob berganda



ham bir eslab olish masihi yuz beradi.

Bu muammoni chuqur tahlil qilayotganimizdan yoki izoh berayotganimizdan shuni aytsak bo'ladi-ki bu jarayon ko'p marta qo'llanilgan va o'zining yaxshi natijasini berib kelmoqda.

Bir qarashda bu juda o'yinqaro murakkab jarayon tuyulishi mumkin, lekin qo'lingizda shu baholash jadvali bo'lsa va uni to'ldirib borsangiz va har bir mashg'ulot bo'limidan so'ng natijalarni e'lon qilib, ya'ni namoyish etib borsangiz, bu auditoriyaning yanada faollashishiga, o'zlari bilmagan holda o'rganuvchilar materialni o'rganishga qanchalik chuqur kirib ketganlarini bilmay qolishlariga guvoh bo'lasix. Va bu sog'lom raqobat yoki kichik bir tortishishlarga ham olib keladi. O'qituvchi esa bu jarayonni nazoratda ushlab turishi, agar aniqlashtiriluvchi savollarni yoki ularga javoblarni nazorat qilib borishi lozim.

Bu usuldan guruhiiy, amaliy, seminar mashg'ulotlarida foydalanish mumkin. Lekin baholash jadvalini doim qo'llash ham maqsadga muvofiq emas, ya'ni hamma mashg'ulotda qatorasiga. Bu tinglovchilar ichida ziddiyatni kuchaytirishi mumkin. Chunki kimdir kim uchun-dir "qoniqarsiz" baho olishi mumkin, hatto "a'lo" bahoga o'qiydiganlar ham. Shuning uchun ziddiyatlarning oldini olish maqsadida har mashg'ulotda o'rganuvchilarning guruhchalardagi joylarini o'zgartirib turish, tortishuvlar va ziddiyatlarni sog'lom raqobat va bilim olish yo'lidagi qarashlar ko'rinishida motivatsiya berish lozim.

Natijalar haqida gapirganda baholarni chiqarish metodikasiga to'xtalib o'tish lozim:

har bir tinglovchining individual sifatlarini hisobga olish: javob uchun "+", to'ldirish uchun "+", noto'g'ri javobni baholamaslik (auditoriya ga salbiy ta'sirini o'tkazishi va natijalarning pasayib ketishiga olib kelishi mumkin), intizomsizlik yoki mashg'ulotga xalaxit berish "-". Bitta "-" bitta esa "+" ni yo'q qiladi;

guruhiiy javoblar: a'lo ya'ni to'liq javob "3" ball, yaxshi javob "2" ball, noto'liq javob "1", to'ldirish uchun "1" ball. Ballar qo'shiladi: masalan $3+2+1+1=7$ ball. Guruhchadagi tinglovchilar soniga bo'linadi $7/3=2$ va olingan natija "+" shaklida individual "+" ga qo'shiladi. Maksimal "+" olgan o'rganuvchiga nisbatan % hisobiga baholar chiqariladi. Buni qanday amalga oshirishni taklif etamiz:

«BIR KISHI HAMMA UCHUN, HAMMA BIR KISHI UCHUN»

Guruhchalar Jurnal bo'yicha raqami Individual

baho belgilar ko'rinishida Guruhiiy baho Umumiy baho Izoh

1 + +++ 3 2 1 2 3=1/4=2,75 3
5 +++ +++ 5



6		+++	3
11	++	+++	5
2	++++	++++	3 3 3 3 3=15/4=3,75 5
12	++	++++	5
8	+++	++++	5
15	++	++++	5
10+		+++	3 2 2 2 2=11/4=2,75 4
3	+	+++	4
7	++	+++	5
13	+	+++	5
14++	++	1 1 1 2	1=8/4=24
4	++	++	4
9	+	++	3
16	-	++	2

Mashg'ulotning har bir savolini alohida kichik savollarga bo'lib o'rganish va shu jadvalda uni baholash mumkin.

Tashqi ko'rinishidan bu juda murakkab jarayonga o'xshaydi. Aslida unday emas.

Bu usul ko'p marotaba qo'llanilgani va o'zining ijobiy natijalarini berganligini hisobga olgan holda taklif etishimiz mumkin. Biz bugun shu usullarning bir nechtasida, hammaga qulayroq usullarda to'htaldik. Bularga yana mashg'ulot boshida o'tgan mashg'ulot bo'yicha yoki mashg'ulot oxirida "esse", "blits-so'rov"lardan foydalanishimiz va ularning natijalarini alohida olishimiz yoki jadvalga qo'shgan holda ham olishimiz mumkin.

Xulosa. Biz mashg'ulotlarni turli ko'rinishda, turli usullar bilan o'tkazishimiz mumkin. Lekin, eng asosiysi erishiladigan natija. Lekin bugungi dunyo hamjamiyatining asosiy e'tibori yangi pedagogik ta'lim texnologiyalarida.

Maqolamiz juda katta bo'lgan bo'lishi mumkin, lekin asosiy muammoli vaziyatlarni yoritib berishga harakat qildik. Bizga eng yaqinlari shular bo'ldi va ularni boshqalar bilan bo'lishgimiz keldi. Ishonchimiz komil-ki, boshqalarda bundan ham samarali usullar bor. O'zaro fikr, malaka almashishib turish, bu ham eng yaxshi va innovatsion usullarning bittasidir. Yuqorida ko'rsatib o'tilgan o'quv jarayonidagi muammolarning echimini agar topsak yoki shunga harakat qilsak bu ham katta ish bo'lgan bo'lar edi deb bimalol aytishimiz mumkin.

Mavjud kadrlar bilan muloqot qilganimizda yuqorida keltirilgan o'rganuvchilardagi shu muammolarning mavjudligi nazarimizda yaqqol ko'rinib turi.



O'qitish jarayoni haqida gapirar ekanmiz, qarashlar turlicha bo'lishi mumkin. An'anaviy usulda harakat bir tomonlama bo'lib qoladi va auditoriyaning faolligi pasayib ketadi. Bu bilan an'anaviy usulda natijaga erishib bo'lmaydi degan fikrdan ham yiroqmiz. Biroq butunjahon tajribalari shuni ko'rsatmoqda-ki tinglovchining mashg'ulot mobaynida faolligi, mustaqilligi o'zlashtirish darajasining oshishida asosiy omil bo'lib xizmat qilmoqda. Chunki tinglovchi mashg'ulotda qancha gapirsa, shuncha uning mulohaza qilish qobiliyati oshadi, nutq madaniyati o'sadi va buning pirovardida dunyoqarashi kengayadi. Shu yo'sinda kengroq qilib aytganda jamiyatimizni, butunjahon hamjamiyatini oladigan bo'lsak, raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash uchun biz pedagoglar kreativ ya'ni ijodkor, o'zimizga va o'rganuvchilarimizga talabchan inson bo'lmog'imiz darkor.

Maqolamiz yakunida yana bir qator motivatsiyaning natijasi sifatida rasmlarga e'tiboringizni qaratmoqchimiz.

Shunday ekan, biz o'rganuvchi shogirdlarimizga ibrat bo'laylik, turtki bo'laylik, ularning oldinga, oxir-oqibat komillikka intilish va kamolga etishi uchun chiqqan yo'llarini yoritaylik va lokomotiv bo'laylik.

Maqolamiz yakunida barchamizga foydali bo'lgan maslahatlarga e'tiboringizni qaratmoqchimiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Kompyuter oldida ishlaydiganlar uchun limon choyni hidi matndagi bo'ladigan xatolarni 54 % ga kamaytiradi.
2. 1 ta har qanday pul kupyurasida 300 000 dan ortiq mikroblar mavjud.
3. Inson yurganida uning nafasining tezligi 1,84 km/soat, yugurganda esa 9,8 km/soat. Eng yuqori 174 km/soat tezlik aksa urganda. Shuning uchun bu holatdan ehtiyot bo'lish lozim.
4. Endigina dunyoga kelgan chaqaloq miyasida 14 mlrd to'qima mavjud. 25 yoshgacha o'zgarmaydi, keyin esa har kuni 100 000 to'qima yo'qolib boradi.

